

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03.30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**MUSABEKOV ULUG‘BEK DJOROBEKOVICH**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI BARQAROR  
RIVOJLANTIRISHNING INVESTITSION STRATEGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of philosophy (PhD)  
in Economics Sciences**

**Musabekov Ulug‘bek Djorobekovich**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning  
investitsion strategiyasini takomillashtirish..... **3**

**Мусабеков Улугбек Джоробекович**

Совершенствование инвестиционной стратегии устойчивого развития  
экономики Республики Узбекистан ..... **27**

**Musabekov Ulugbek Djorobekovich**

Improving the investment strategy for sustainable development of the  
economy of the Republic of Uzbekistan..... **53**

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... **58**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03.30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**MUSABEKOV ULUG‘BEK DJOROBEKOVICH**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI BARQAROR  
RIVOJLANTIRISHNING INVESTITSION STRATEGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida V2021.2.PhD/Iqt1647 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish muammolari va ilmiy asoslar" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lif portalı ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Akhmedieva Aliya Toxtarevna**

DSc iqtisodiyot fanlari doktori, professor v.v.b.

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunxodjayev Marat Lutfulaevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mambetjanov Qahramon Qurbanburdievich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2021.l.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "5" 10 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1339 raqami bilan ro'yxatga olingan).

Manzil: 100066, Toshkent shahri. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-27; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 19.09 da tarqatildi.  
(2023-yil 19.09 dagi 42-raqamli reestr bayonomasi).



**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash konbi, i.f.n., dotsent

**U.V. Gafurov**

Ilmiy-darajeler beruvchi ilmiy kengash joshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **Kirish ((falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

### **Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.**

Oxirgi davrdagi dunyo bozoridagi nobarqarorlik sharoitida xalqaro investitsiyalar oqimining kamayishi investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonini sekinlashtirishga olib keldi. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi 2020-yilda 35 foizga kamayib, 1 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Yevropada jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi 80 foizga kamayib, 73 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 57 foiz, Fransiyada 47 foiz va Germaniyada 34 foizga kamaydi. AQShda investitsiyalar oqimi qayta investitsiya qilingan daromadlarning kamayishi hisobiga 40 foizga kamayib, 156 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan”<sup>1</sup>.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga nazar tashlasak, ularda investitsion faollikni oshirish mamlakatda iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan birini tashkil qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish jarayonida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini texnik qayta qurollantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalarni jalg etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi mamlakatni xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun samarali investitsiya siyosatini olib borishni taqozo etmoqda.

Bunda, avvalo, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minalash, asosiy kapitalni texnologik qayta ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalg etish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning makroiqtisodiy masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda, shu munosabat bilan “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalg etish choralarini ko‘rish” mo‘ljallangan<sup>2</sup>. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi investitsiya strategiyasini shakllantirish va uni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish asosida iqtisodiy o‘sishni ta’minalash ahamiyati sezilarli darajada oshmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-sonli “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>1</sup> World Investment Report-2021: Investing in sustainable recover.

UNCTAD/WIR/2021.[https://unctad.org/system/files/official-document/wir2021\\_en.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2021_en.pdf).

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

to‘g‘risida”gi PF-215-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-sonli Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Investitsiyalardan samarali foydalanishning fundamental va nazariy asoslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni M. Moore, H.Schmitz, G.Birman, Z.Bodi, J.Gitman, S.V.Gubanov, D.M.Keyns, V.Sharp, V.V.Bocharov, B.T.Bayxonov, R.Zayniddinov, U.Otajonov, I.Karimov, I.To‘xtaxonov, O.Sh.Sobirov, Sh.I.Mustafakulov singari xorijiy va mahalliy mualliflarning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin<sup>3</sup>.

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya masalalarining ilmiy-amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi-olimlari D.K.Axmedov, E.E.Baynazarov, B.R.Bobojonov, A.V.Vahobov, A.R.Yoqubjonov, I.Jo‘rabo耶ev, A.A.Isadjanov, F.N.Karimova, N.R.Kuziyeva, E.A.Maxmudov, N.M.Maxmudov, U.S.Nadirxonov, G.G.Nazarova, N.I.Nedelkina, N.N.Oblomurodov, A.A.Rafiyev, F.M.Raxmatullayeva, D.D.Rustamova, T.X.Sapayev, A.A.Sobirov, X.X.Xalilov, I.M.Xanova, N.X.Xaydarov, N.Z.Xakimov, J.T.Xoltayev, S.V.Chepel, Sh.G.Yuldashev, A.O‘lmasov, A.Qoraboyev, D.J.Qurbanov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> M.Moore, H.Schmitz. Idealism, realismand the investment climatein developing countries - Sussex: Institute of Development Studies, 2016 - P.22., Бирман Г. Экономический анализ инвестиционных проектов. – М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 2003. – 631 с., Боди З. Принципы инвестиций. – М.: Вильямс, 2002. – 994 с., Гитман Л.Дж. Основы инвестирования. – М.: Дело, 1997. – 1008 с., Губанов С.В. Глубинные проблемы инвестиционных процессов. // Экономист. – 2019. – № 8. – С. 60-62, Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс, 1978 – 444 с., Шарп У. Инвестиции. – М.: Инфра-М, 2001. – 1028 с., Бочаров В.В. Инвестиции. – СПб.: Питер, 2018. – 276 с., Bayxonov B.T. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida investitsiyalardan foydalanish jarayonlari tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 5-son, sentabr-oktabr, 2016-yil; Zayniddinov R. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 5-сон, sentabr-oktabr, 2020-yil.; ОтажоновУ. Improvement of Methods of Assessing the Investment Climate of The Regions of the Republic of Uzbekistan Tashkent State Economic University journal March April 2020 ISSN: 0193-4120 Page No. 5489 – 5499.; Каримов И. Современная инвестиционная политика в Республике Узбекистан. “YoungScientist”. # 5 (295). January 2020.; То‘xtaxonov I. Investitsiya faoliyatini noan'anaviy moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning nazariy asoslari. Bank-moliya akademiyasi jurnali 2020-y. 4-son. - 166 b., Сабиров О.Ш. Повышение инвестиционной привлекательности и создание благоприятного инвестиционного климата. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 5-сон, sentabr-oktabr, 2020-yil, Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, medologiya va amaliyat. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017-yil. – 328 b.

<sup>4</sup> Ахмедов Д.К. Бизнес-настроения в процессе реформ. Диалог государства с бизнесом определил пути совершенствования инвестиционного климата// Экономическое обозрение №5 (221), 2018 г., - с.80-84.

Mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning investitsiya jarayonlarini iqtisodiy o'sishga qo'shgan salmoqli hissasiga qaramay, to'liq o'rganilmagan bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar qatoriga investitsiya strategiyalarini shakllantirishga uslubiy yondashuvlar va ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari cheklanganligi, investitsiya strategiyasini amalga oshirish mexanizmi va uning me'yoriy-huquqiy bazasini yetarli darajada o'rganilmaganligi, makro iqtisodiyotda investitsiyalarni moliyalashtirishning muqobil manbalarini aniqlashni kiritish mumkin. Bunday muammolarni hal etish zarurati mazkur dissertatsiya ishining mavzusini tanlash va uning dolzarbligini ham belgilab berdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliv ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejulari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazining OT-F1-022-raqamli "Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ichki imkoniyatlarni aniqlash va zaxiralarni safarbar qilishning ilmiy-metodik asoslari" nomli fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning investitsion strategiyani takomillashtirishga qaratilgan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

taraqqiyot strategiyasi asosida iqtisodiyotning makroiqtisodiy rivojlanishini investitsion qo'llab-quvvatlashning nazariy va uslubiy jihatlarini o'rganish;

investitsiya jarayonlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillar va milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy yondashuvlarini aniqlash;

investitsiya risklari tasnifini aniqlashtirish va iqtisodiy barqarorligini

---

Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. №2, yanvar, 2016-y., 5-10-b.; Berkinov B.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №5, sentabr-oktabr, 2015-y.; O'Imasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. – 480 b.; Исаджанов А.А. "Глобализация мировой экономики". Учебное пособие. УМЭД, 2008 год - 185 с.; Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari, iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2008 y.; Maxmudov. N.M. O'zbekiston iqtisodiyotidagi investitsiyalarni tarmoqlararo bo'linishini ekonometrik modellari. Monografiya. 2014. 158 б. Надырханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. –Т.: "Fan va texnologiya", 2011.; Назаров III.X. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов / Диссертация. Ташкент: IFMR, 2014. С.41.; Oblomuradov N. Xorijiy investitsiyalarini jalb qilishni nimalar rag'batlantiradi//Korxonalar boshqarish, №6, 2012-y., 21-26 b.; Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarini jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2006-y., 112-bet.; Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика// Диссертация. Ташкент. "IQTISOD-MOLIYA", 2005. -280 с.; Xaydarov N.X. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar imkoniyatlari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №1, 2011-y.; Xoltayev J.T. Iqtisodiy o'sishda investitsiyaning ahamiyati// O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. - Toshkent, 2000. - №7. -В. 41.; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана// Диссертация. Ташкент: IFMR, 2014. С.116.; Юлдашев Ш.Г., «Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан», диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 2001 г. С.284-285.

ta'minlash usullarini tizimlashtirish;

investitsiyalash jarayonini hozirgi holatini tahlil qilish va ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liqligini aniqlash;

raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida O'zbekistonda investitsiya strategiyasi amalga oshirishni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

investitsiyalash mexanizmini takomillashtirish asosida ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiyalarni rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida investitsion strategiyani takomillashtirish asosida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish istiqbollari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekiston Respublikasida investitsion strategiyasini takomillanshtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada strategik rejalashtirish, monografik kuzatuv, kontent-tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, prognozlash usullaridan foydalaniladi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra jahon bozorlarida davom etayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda mikro-mezo va makro darajalarda sodir bo'layotgan ko'plab jarayonlar ta'siri ostida shakllanuvchi "davlatning investitsiya strategiyasi"ning samaradorligi davlat, mahalliy hokimiyat organlari, xususiy sektor o'rtasida yangi daromad manbalarini yaratish va bandlikni oshirish, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun o'zaro manfaatli hamkorlik va sheriklik mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatning investitsion muhiti jozibadorligi va imidjini (reputation) shakllantirish bilan bog'liqligi asoslangan;

iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmining investorlar xususiy manfaatdorligining o'zgaruvchanligi sharoitida vujudga kelishi mumkin bo'lган tebranishlari oqibatida rivojlanish jarayonlari barqarorligiga ta'sirining yuqori chegaraviy darajasi ( $K_b=0,3$ ) ni hisobga olish orqali investitsiya dasturlarini takomillashtirish taklifi asoslangan;

investitsiya dasturlariga kiritilgan yirik investitsion loyihalarni amalgaga oshirishda investitsiya muhitining makro yoki mikrodarajadagi o'zgarishi sharoitida qisqa yoki uzoq muddatli to'xtalishlarning turli makroiqtisodiy parametrlarga ta'sirini muvozanatlashtiruvchi  $\pm 5$  foiz chegarasidagi investitsiya resurslari zaxirasini shakllantirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda makroiqtisodiy parametrlarga ta'sir etuvchi omillarni baholash orqali o'rta muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

mamlakatda iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash orqali investitsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga oid uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

investitsiya jarayonlarini rivojlantirishda investitsiya imidjini oshirishga qaratilgan maxsus institutlarni tashkil qilish bo'yicha takliflar asoslangan;

investitsiya jarayonlarida qatnashuvchilar uchun ixtisoslashtirilgan axborot-tahlil platformasini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

investitsiyalashni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilganligi, keltirilgan tahlillar matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyatga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining mas'ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan investitsion faollikni jadallashtirish asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalişlarini asoslash, shu asosda davlat, tarmoq va mahalliy rivojlanish dasturlari, strategiya va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohланади.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, hokimliklar, hududlardagi investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Investitsion faollikni jadallashtirish asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha olingen ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra jahon bozorlarida davom etayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda mikro-mezo va makro darajalarda sodir bo'layotgan ko'plab jarayonlar ta'siri ostida shakllanuvchi "davlatning investitsiya strategiyasi" ning samaradorligi davlat, mahalliy hokimiyat organlari, xususiy sektor o'rtaida yangi daromad manbalarini yaratish va bandlikni oshirish, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun o'zaro manfaatli hamkorlik va sheriklik mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatning investitsion muhiti jozibadorligi va imidjini (reputation) shakllantirish muammolari oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagagi 365-sonli buyrug'i). Mazkur investitsion muhit jozibadorligi va imidjini (reputation) shakllantirishni davlat tomonidan tartibga solishning takomillashtirilgan strategiyisini oliy o'quv yurtlari talabalari uchun takomillashtirilgan holda darslikga kiritilishi natijasida talaba va mutaxassislarning investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkoniy yaratilgan;

iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmining investorlar xususiy manfaatdorligining o'zgaruvchanligi sharoitida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tebranishlari oqibatida rivojlanish jarayonlari barqarorligiga ta'sirining yuqori chegaraviy darjasini ( $K_b=0,3$ )ni hisobga olish orqali investitsiya dasturlarini takomillashtirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" dasturiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2023-yil 08-fevraldagi 35-23/214 sonli va 2023-yil 11-avgustdagagi 35-23/844 sonli dalolatnomalari). Natijada investitsiya dasturlari taklif etilayotgan chora-tadbirlarni kompleks tarzda

amalga oshirish risklarini kamaytirishga, barqaror investitsiya portfelin shakllantirishga va maksimal samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi. Investitsiya dasturlarini shakllantirish ta'sirning yuqori chegaraviy darajasini ( $K_b = 0,3$ ) hisobga olgan holda takomillashtirish, iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish va xususiy sektordagi o'zgaruvchanlik ta'sirini nazorat qilish asosida investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish imkonini berdi;

investitsiya dasturlariga kiritilgan yirik investitsion loyihalarini amalga oshirishda investitsiya muhitining makro yoki mikrodarajadagi o'zgarishi sharoitida qisqa yoki uzoq muddatli to'xtalishlarning turli makroiqtisodiy parametrlarga ta'sirini muvozanatlashtiruvchi  $\pm 5$  foiz chegarasidagi investitsiya resurslari zaxirasini shakllantirish taklifi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" dasturiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2023-yil 08-fevraldag'i 35-23/214 sonli va 2023-yil 11-avgustdag'i 35-23/844 sonli dalolatnomalari). Tahliliy ishlanmalar va ekspert xulosalariga ko'ra, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida  $\pm 5$  foiz miqdorida investitsiya resurslari zaxirasini shakllantirish nafaqat korxonalar mavqeini mustahkamlaydi, balki milliy va mintaqaviy miqyosda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlaydi;

O'zbekistonda makroiqtisodiy parametrlarga ta'sir etuvchi omillarni baholash orqali o'rta muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" dasturiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2023-yil 08-fevraldag'i 35-23/214 sonli va 2023-yil 11-avgustdag'i 35-23/844 sonli dalolatnomalari). Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha prognoz parametrlaridan iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 10 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalariga asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta mahalliy va 2 ta xalqaro jurnallarda maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 138 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib

berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion strategiyani takomillashtirish metodologiyasi**” deb nomlangan bиринчи bobida investitsion faollik asosida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish zarurati va omillari, investitsiya jarayonlarini faollashtirish, investitsiya jozibadorligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni nazariy asoslari va uni investitsion strategiyani shakllantirish bilan bog‘likligi ko‘rsatilgan.

Zamonaviy strategiyalar ularda muayyan milliy iqtisodiyotning rivojlanish sharoitlarini muntazam hisobga olishga, ular oldida turgan vazifalarning anglab yetilishiga asoslanadi. Dissertatsiya ishida, investitsiya strategiyalariga nazariy yondashuvlar quyidagi ilmiy yo‘nalishlar doirasida umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan:

rivojlanish maqsadi va vazifalarini qo‘yish, ichki va tashqi muhitning salohiyatini baholashni tashkil etish, strategiyani tanlash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish (I.Ansoff);

strategik maqsadlar, ularni aks ettiruvchi parametrlar va prognoz qilinayotgan natijalarga ega bo‘lish omillari o‘rtasidagi sababli-oqibatli bog‘lanishlarga asoslangan (R.Kaplan, D.Norton);

barqaror raqobat ustunliklarini yaratish strategiyalari (M.Porter);

investitsiya jarayonlariga va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga turli omillar ta’sirini o‘rganishga asoslangan yondashuv (Ya.Tinbergen, Ya.Pollak, F.Modilyani);

xususiy sektorga jalg qilinayotgan investitsiyalarni rag‘batlantirishga davlat tarafidan kredit, soliq, amortizatsiya, qayta moliyalashtirish stavkalari va boshqa dastaklar orqali ta’sir qilish (Ye.Xagen, F.Lund, L.Ioxansen)<sup>5</sup>.

Muallifning fikricha, davlatning investitsiya strategiyasi jahon bozorlarida davom etayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda mikro-mezo va makro darajalarda sodir bo‘layotgan ko‘plab jarayonlar ta’siri ostida shakllanadi. Investitsiyalar talabiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatning investitsiya strategiyasi investitsiyalarni jalg qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay investitsiya muhitini (investment climat) yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Investitsiya jozibadorligini aniqlash bo‘yicha xorij tajribasi bir qancha uslublar bilan belgilanadi, misol uchun Garvard biznes maktabining, International “Country Risk Guide” (ICRG) tadqiqot markazi va “BERI” (Germaniya), “Standard & Poor’s” (AQSh), “Moody’s” (AQSh) uslublari, “Euromoney”, “Fortune” (AQSh), “The Economist” (Buyuk Britaniya) da keltirilgan yondashuvlar va boshqa hisoblash usullari mavjud (1-jadval).

<sup>5</sup> Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. М.: Олимп, 2003, с. 254., Минцберг Г., Альстренд Б., Школа стратегии. Пер. с англ.- СПБ.: Питер, 2000.- с.336., A. Chandler Strategy and Structure. Cambridge. MITPRESS, 1962, p.365, Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 635 с. Pollak J. J. and Tinbergen J. The Dynamics of Business Cycles: Study in Economic Fluctuation. Chicago: 1950

**Ekspert bahosi asosida mamlakat tavakkalchilagini baholash usullari<sup>6</sup>**


<b>Modelning nomlanishi</b>	<b>Baholanayotgan tavakkalchilik</b>	<b>Reytingda ishtirok etuvchi mamlakatlar soni</b>	<b>Reyting tuzish davriyligi</b>
BERI Operations Risk Index (ORI)	Umumiy	48	Yilda 3 marta
BERI Political Risk Index (PRI)	Siyosiy	48	Yilda 3-marta
Institutional Investor's Country Credit Rating (ICCR)	Iqtisodiy	133	Yilda 1 marta
International Country Risk Guide (ICRG)	Siyosiy, iqtisodiy	100 dan ortiq	Har oy
World Political Risk Forecast (WPRF)	Siyosiy, iqtisodiy	80	Har oy
Euromoney's Country Risk Index	Iqtisodiy	116	Har oy
Oxford Analytical Data	Umumiy	50	Har oy
Composite ICRG risk raiting	Umumiy	140	Yilda 1 marta

Shunday qilib, muallifning fikricha mamlakatning investitsion muhitijozibadorligi va imidjini (reputation) shakllantirish davlat, mahalliy hokimiyat organlari, xususiy sektor o'rtasida yangi daromad manbalarini yaratish va bandlikni oshirish, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun o'zaro manfaatli hamkorlik va sheriklik mexanizmlarini yaratishni talab qiladi (1-rasm).

Dissertatsiyaning “**Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsion jarayonlarni hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarini jalb qilish tendensiyalari va investitsion muhitni shakllantiruvchi institutsional muhit tahlili hamda investitsion strategiyani ishlab chiqishga uslubiy yondashuvlar tadqiq qilingan.

Tahlillar shundan dalolat berayaptiki, mamlakatdagi erishilgan makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy va institutsional islohotlarning chuqurlashishi, investitsiyaviy iqlimning yaxshilanishi 2022-yilga nisbatan milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining faollashishiga va asosiy kapitalga kiritilgan qo'yilmalarni hajmining o'sishiga sabab bo'ldi (2-rasm).


<sup>6</sup> Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida tuzilgan.



### **1-rasm. Investitsiya muhiti va mamlakat imidji (reputation) o'rtaSIDagi munosabatlar tasniflanishi<sup>7</sup>**

Tahlil qilinayotgan davr ichida hamma moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalash nisbati ancha o'zgardi. 2013–2022-yillar mobaynida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash natijasida elektr energetika, gaz va bug' bilan ta'minlash sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 14,1-marta, ishlab chiqaradigan sanoat 15,6-marta, band bo'lganlar soni 14-foizga, qishloq xo'jaligi 4,2-marta oshdi.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlanishini makroiqtisodiy indikatorlari (joriy narxlarda, mlrd so'm)<sup>8</sup>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2013-yilga nisbatan 7,7-martaga o'sib, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 3,6-marta o'sishni tashkil etdi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatishicha, moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda (2-jadval).

2-jadval

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni tarkibi (jamiga nisbatan foizda)<sup>9</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2013	2015	2017	2019	2020	2021	2022	O'zgarish lar 2022 (+/-2013)
1	Korxona va aholi	57,9	56,2	47,3	29,3	40,8	38,0	40,6	-17,3
2	Jalb qilingan mablag'lar	42,1	43,8	52,7	70,7	59,1	62,0	59,4	17,3
3	Davlat budgeti	5,0	4,2	4,8	9,0	6,8	9,3	8	3
4	Bank kreditlari va boshqa qarz manbalari	9,7	11,0	12,6	13,8	7,6	8,0	6,6	-3,1
5	Chet el investitsiyalari va kreditlari	18,1	18,5	23,8	43,6	42,7	42,3	42,8	24,7

Chet el investitsiyalari va kreditlari 2013-yilda 18,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 24,7 %ni tashkil qildi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 42,1 % yoki 2021-yilga kelib 59,4 % hisobida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Dissertatsiya ishida O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini rivojlantirishning quyidagi asosiy tendensiyalari aniqlandi:

jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi, investitsiya muhitini yaxshilash, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va uni tartibga solish tizimini soddalashtirish chorralari (Doing Business reytingidagi ijobiy o'zgarishlar, "MyGov.uz" portalı ishga tushirildi va b.), shuningdek investorlarning huquqlarini huquqiy himoya qilish mexanizmlari takomillashtirildi;

O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalariga xususiy investitsiyalar jalb qilish hajmini o'sishi, qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinishi, shundan milliard dollar xususiy investitsiyalar bo'lishi kutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish jarayonini faollashtirmoqda;

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan

erkin iqtisodiy (“Navoiy” eksport-ishlab chiqarish zonası) va kichik sanoat zonalarini shakllantirish, sanoat, innovatsiya va IT-parklarni, tarmoqlararo klasterlarni va boshqa rivojlanish institutlarini shakllantirilmoqda (yaratilgan imtiyozlar ushbu hududlarni investitsion jozibadorligini oshishiga xizmat qiladi);

O‘zbekistonda infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish maqsadida investitsiya manbalarini diversifikatsiyasi amalga oshirildi, bu maqsadda turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilinmoqda (Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqalar);

investitsiya muhitini baholashda statistik tahlillarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston turli xalqaro reytinglar tizimida qatnashmoqda, misol uchun Investment Attractiveness Index, Corruption Perceptions Index, Index of Economic Freedom, Doing Business Index, Foreign Direct Investment;

zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatni innovatsion rivojlantirish konsepsiysi amalga oshirilmoqda, iqtisodiyotning turli sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga va ushbu sohalarga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Dissertatsiya ishida investitsiya strategiyasini takomillashtirishda makro va mikroiqtisodiy, bozor va tarmoq sharoitlarini hisobga olgan holda tabaqlashtirilgan ustuvorliklarni aniqlash uchun (Delphi technique) ekspert usulidan foydalanilgan.

Delphi technique usuli – bu noaniqlik va miqdoriy statistik ma’lumotlarning yetarli emasligi sharoitida qaror qabul qilish uchun ishlatiladigan ekspert prognozlash vositasidir.

Tadqiqotda standart xatolikni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanildi:

$$S = \sqrt{\left(\frac{1}{n}\right) * ((X_1 - X)^2 + (X_2 - X)^2 + \dots + (X_n - X)^2)}, \text{ bu yerda}$$

S - standart xatolik,

X - o‘rtacha qiymat.

X<sub>1</sub>- X<sub>n</sub> - ekspert reytinglari,

n - ekspertlar soni.

Investitsion jozibadorlikni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$IP = \sum W_i \times X_i, \text{ bu yerda}$$

IP - investitsiya jozibadorligi.

W<sub>i</sub> - ekspertlar tomonidan ma’lum bir mezonga tayinlangan vazn (mezonning ahamiyati).

X<sub>i</sub> - ekspertlar tomonidan ma’lum bir mezonga tayinlangan reyting (mezon sifati).

Ekspertlar so‘rovini o‘tkazgandan so‘ng, har bir omilning hisob-kitoblarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari hisoblab chiqildi (3-jadval).

**O‘zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini baholash  
bo‘yicha ekspertlar so‘rovnomasasi natijalari**


№	Faktorning nomi	Ekspertlar										Omillarning o‘rtacha qiymatlari
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1	Siyosiy barqarorlik	8	7	9	7	6	8	9	8	7	9	7,9
2	Soliq tizimi	6	7	8	6	7	6	5	7	6	7	6,6
3	Moliyaviy resurslarning mavjudligi	7	8	7	6	7	8	6	7	7	8	7,2
4	Davlat boshqaruvi samaradorligi	7	6	8	7	6	7	8	6	7	8	7,0
5	Malakali kadrlar mavjudligi	8	7	8	7	6	8	9	7	8	9	7,9
6	Infratuzilma	7	8	7	6	8	7	8	6	7	8	7,3
7	Ilmiy-texnik yutuqlarni rivojlantirish	6	7	6	7	5	6	8	6	7	8	6,7
8	Tashqi savdo faoliyatini tartibga solish	7	6	7	6	8	7	6	7	6	8	6,8
9	Hayot sifati	8	7	9	7	6	8	9	7	8	9	7,9
10	Xatarlar va noaniqliklar	6	8	7	6	7	5	8	7	6	8	9,8
11	<b>Umumiy baholash</b>	<b>7,565 ball</b>										

Muallifning fikricha, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish va buning asosida sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta’minlashni asosiy shartlaridan biri bo‘lib, investitsiya faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektoriga kiritiladigan ichki va xorijiy investitsiya resurslaridan foydalangan holda sarmoya qo‘yilmalari ko‘lamlarini salmoqli darajada kengaytirish hisoblanadi.

Ekspertlar tomonidan berilgan baholarga ko‘ra, O‘zbekistonning investitsion jozibadorligi 7,565 balni tashkil etdi (10 baldan). O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini belgilovchi omillarning o‘rtacha vaznli hisob-kitobi natijalari 3-rasmda berilgan.

Tadqiqotda iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan rivojlanish jarayonlarining barqarorligiga yuqori chegaraviy darajasini ( $K_b=0,3$ ) hisobga olish uslubi taklif qilingan.

Investitsiyalar hajmining o‘zgarishiga javoban iqtisodiy ko‘rsatkichlarning (masalan, ishlab chiqarish yoki daromad) o‘zgarishini ko‘rsatadigan investitsiya ta’sirining chegaraviy tezligini tahlil qilish va hisoblash orqali investitsiya tebranishlarining barqarorligiga qanchalik sezilarli ta’sir qilishini baholash mumkin.



### 3-rasm. O'zbekistonning investitsion jozibadorligini belgilovchi omillarning o'rtacha vaznli hisob-kitobi natijalari<sup>10</sup>

Ushbu formulani va yuqori chegaraviy darajasining qiymatini ( $K_b=0,3$ ) hisobga olgan holda, investitsiyalar hajmining o'zgarishi ta'siriga mos keladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning qiymatlarini aniqlash mumkin.

$$I_{adj} = I * (1 - K_b * V)$$

$I_{adj}$  - sozlangan investitsiya miqdori,

$I$  - dastlabki investitsiya miqdori,

$K_b$  - cheklovchi ta'sir normasi (bu holda 0,3),

$V$  - investor qiziqishlarining o'zgaruvchanligi ko'rsatkichi.

O'zgaruvchanlik sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiyotga jalg qilingan investitsiyalar hajmining o'zgarishi tufayli rivojlanish jarayonlarining barqarorligiga ta'sirning yuqori chegaraviy sur'atini ( $K_b=0,3$ ) hisobga olgan holda investitsiya dasturlarini takomillashtirish taklifini asoslash (o'zgarishlar) investorlarning shaxsiy manfaatlarida (4-jadval).

Shunday qilib, yuqori chegaraviy darajasini ( $K_b = 0,3$ ) hisobga olgan holda investitsiya dasturlarini takomillashtirish, rivojlanish jarayonlarining barqarorligiga ta'siri jiddiy iqtisodiy asosga ega. Iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish va o'zgaruvchanlik xususiy investorlar ta'sirini nazorat qilishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda investitsiya strategiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari"** deb nomlangan uchinchi bobida xalqaro raqobat oshishi sharoitida investitsion strategiyani shakllantirish, investitsiya qarorlarini qabul qilishda raqamlı texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish va mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini oshishini ekonometrik modellar asosida prognozlash masalalari ko'rib chiqilgan.

<sup>10</sup> Muallif hisob-kitoblari

**Investitsiyalar hajmining o‘zgarishi tufayli rivojlanish  
jarayonlarining barqarorligiga ta’siri<sup>11</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Nomi</b>	<b>Tarkibi</b>
<b>1</b>	Investitsiyalarni jalg qilish jarayoni	Iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikning asosiy omili. Ta’sirning chegaraviy normasini hisobga olish ( $K_b = 0,3$ ) investitsiyalar hajmining o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy rivojlanishning barqarorlik darajasini saqlab qolishga yordam beradi.
<b>2</b>	Investorlar shaxsiy manfaatlарining o‘zgaruvchanligi	Investitsion dasturlarning uzoq muddatli barqarorligi asosiy xavflardan birini ifodalaydi. Investitsiya strategiyasida $K_b=0,3$ ni hisobga olish loyihalarning xususiy manfaatlar o‘zgarishiga zaifligini kamaytiradi, shu bilan kapitalning chiqib ketishining salbiy oqibatlarini cheklaydi.
<b>3</b>	Investitsion dasturlarni takomillashtirish	Ta’sirning yuqori chegaraviy tezligini ( $K_b = 0,3$ ) hisobga olgan holda, hukumatlar va kompaniyalar bozor xususiyatlardan kelib chiqqan holda ko’proq asosli investitsiya qarorlarini qabul qilishlari va o‘zgaruvchanlik bilan bog’liq muammolardan qochishlari mumkin.
<b>4</b>	Integratsiya	Investitsion dasturlarda yuqori chegaraviy darajasini ( $K_b = 0,3$ ) iqtisodiy jarayonlarining ta’sirini yumshatishga va iqtisodiy tebranishlar sharoitida rivojlanish barqarorligini oshirishga yordam beradi.
<b>5</b>	Investitsion dasturlarda $K_b=0,3$ ni hisobga olish	Investorlarning shaxsiy manfaatlарining o‘zgaruvchanligi bilan bog’liq bo’lishi mumkin bo’lgan xavflarni erta aniqlash va ularga javob berish imkonini beradi. Bu sizga tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashgan moslashuvchan investitsiya strategiyasini qo’llash imkonini beradi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan, investitsiya nazariyalarining retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatdiki, makro, mezo va mikro darajadagi investitsiya jarayonlarining samaradorligi ko‘p jihatdan davlatning investitsiya strategiyasini shakllantirishdagi o‘rni bilan belgilanadi.

Investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda muallif tomonidan taklif etilayotgan yondashuvning quyidagi xususiyatlari aniqlangan:

innovatsion (O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi), motivatsion, hududiy (mintaqalarning rivojlanish strategiyalari, erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish dasturlari va boshqalar), iqtisodiy (O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi), ekologik (“2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”), raqamlı texnologiyalar (“Raqamli O‘zbekiston – 2030”), ma’muriy va boshqa tarkibiy qismlar mavjud bo’lgan rivojlanishning sifat jihatidan yangi vektoriga integratsiyalashgan investitsiya strategiyasini shakllantirish;

investitsiya strategiyalarini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasini barqaror iqtisodiy rivojlantirish progonozlari va dasturlarida belgilangan maqsadlar va vazifalar bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi kerak;

huquqiy nuqtayi nazardan, strategiya – bu hukumatning turli tarmoqlari, ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki eng muhim

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan

(strategik) loyihalarni va boshqa tadbirlarni birgalikda ilgari surish bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladigan hujjatdir.

Shunday qilib, investitsiya strategiyasi bu qonun chiqaruvchi, sud tizimi va ijro etuvchi hokimiyat vakillari, yirik korxonalar, banklar, xo‘jalik birlashmalari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, mahalliy hamjamiyat va nodavlat tashkilotlar rahbariyati o‘rtasidagi milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadidagi hamkorlik mahsulidir.

Dissertatsiya ishida investitsiya strategiyasining muhim vazifasi jalb qilingan investitsiyalar hajmining o‘sish konsepsiyasidan investitsiyalardan samarali foydalanish konsepsiyasiga o‘tishni hisoblanishi kerak. Xususan, xomashyo sanoatining emas, balki yuqori qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga qo‘sishgan hissasi bilan belgilanadi (5-jadval).

Investitsiya strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari an’naviy, asosan tog‘-kon tarmoqlarini moliyalashtirishdan iqtisodiyotning bilim talab qiladigan tarmoqlariga sarmoya kiritishga, jahon bozorlarida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilishi kerak<sup>12</sup>.

5-jadval

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi (foizda)<sup>13</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2014	2016	2018	2020	2022	O‘zgarishlar	
						2018- 2014y (+),(-)	2022- 2014y (+),(-)
Jami	100	100	100	100	100	-	-
<b>Shu jumladan</b>							
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	10,2	9,4	6,4	7,0	5,9	-3,8	-4,4
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	18,5	14,0	12,9	11,2	8,7	-5,6	-9,9
Ishlab chiqarish sanoati	12,7	17,6	20,7	26,6	25,5	8,0	12,8
Qurilish	2,1	1,8	2,1	4,8	6,1	-0,1	4,0
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’midot	1,8	1,3	2,9	2,1	2,6	1,1	0,8
Boshqa turdag‘ xizmatlar ko‘rsatish	0,8	2,1	0,9	1,0	0,9	0,1	0,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	4,5	5,3	12,4	5,3	7,5	7,9	3,0
Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	1,2	1,4	2,1	1,7	2,5	1,0	1,3
Axborot va aloqa	2,2	2,1	1,3	4,3	2,6	-0,9	0,4
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	0,7	0,7	0,8	1,6	1,2	0,1	0,5
Tashish va saqlash	11,2	11,3	6,8	6,7	7,7	-4,3	-3,4
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	19,7	19,1	16,6	10,6	11,6	-3,0	-8,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2,4	2,2	2,2	3,2	4,1	-0,2	1,7

<sup>12</sup> Javorcik, Beata S. 2004. “Does Foreign Direct Investment Increase the Productivity of Domestic Firms? In Search of Spillovers through Backward Linkages.” American Economic Review 94 (3): 605–27.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Tadqiqotda tarmoq va hududlarning investitsion jozibadorlilagini oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

tarmoq mintaqaviy investitsiya forumlarini tashkil etish, uning maqsadi menejerlar va mutaxassislar, respublika va mintaqaviy ijro etuvchi hokimiyat organlari, vazirlik va idoralar, IT mutaxassislari, ilmiy va ta’lim tizimi, xalqaro investitsiya biznesi, respublikada akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro tashkilotlar vakillari va boshqalar uchun investitsiya jarayonlarini rivojlantirish bo‘yicha munozarali platformani shakllantirishdan iborat (ikkinchi xalqaro Toshkent investitsion forumi, 27-28-aprel 2023-yil);

tarmoqlar va hududlarning investitsion jozibadorligini rivojlantirish bo‘yicha indekslar (reytinglar) milliy tizimini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining investitsion salohiyatini baholash, tarmoqlar va hududlarning investitsion jozibadorligini xalqaro standartlarga muvofiq reyting (indeks) baholarini tuzish;

yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish va xususiylashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish (“1000/1000/40”-1000 korxona va ko‘chmas mulk obyektlaridagi davlat ulushini investorlarga sotish, 40 korxonalarni IPO bozoriga olib chiqish), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ehtiyojlari uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini rivojlantirish (Doing business), biznes jarayonlarini optimallashtirish va investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish, loyihalarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish (“O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturi”, World Bank);

investitsiya jarayonlari holatini monitoring (monitoring) qilish va investitsion muhitni xalqaro baholash metodologiyasi (Policy Framework for Investment, OESR) va vositalarini hamda statistik (shu jumladan ochiq ma’lumotlar platformasidan foydalangan holda) va boshqa ma’lumotlardan foydalanish;

“qattiq” infratuzilmaga, investitsiyalarning yanada o‘sishiga yangi obyektlarni moliyalashtirish va qurish, barqaror muhandislik tizimlarini modernizatsiya qilish va rekonstruktsiya qilish (investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish) va “yumshoq” infratuzilma (nomoddiy aktivlar, ijtimoiy soha, normalar va qoidalar, raqamlı texnologiyalar va aloqa, sud-huquq tizimi, davlat boshqaruvi va boshqa rivojlanish institutlari) kiradi;
